

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
mudiri xay'at raisi

M.E. Xakimova



03 2025 y.

« TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L.X. Musadjanova



2025y.

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

**SANITARIYA EPIDEMIOLOGIYA OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI QO'MITASI VRACH YORDAMCHISI**

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

G.A.Shermuhammedova

Yunusobod tuman SEO va JSQ
Parazitologiya laboratoriyasi mudiri
vrach laborant

S.A.Muxamedjanova

Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi o`qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

M.A.Ibragimova

Yunusobod tuman SEO va JSQ
Bakteriologiya laboratoriyasi bo`lim
mudiri oliy toifali vrach

Z.Z.Imomova

Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika
xodimlari malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi o`quv
ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

O`quv dasturi Respublika o`rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko`rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 03 2025.y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O`quv dasturi direktorlar kengashida ko`rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 03 2025.y.

bayonnoma № 1

1. Kirish

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida laborantlik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasining 26.08.2015 yildagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi haqidagi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4790-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash doirasida yaratilgan.

Dasturda o‘quv fanining mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. O‘quv dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan.

O‘quv dastur “SEOJSQ vrach yordamchisi” yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarning 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm–fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy ta’limda uzluksizligi va uzviylikini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida “SEOJSQ vrach yordamchisi” bo‘yicha hamshiralarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi kompetensiyalarni egallash va mavjud malaka doirasida ularning kasbiy darajasini oshirish. SEOJSQ vrach yordamchilarining har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, ish faoliyati doirasida profilaktik va davolash-dagnostik muolajalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshira olish, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholi o‘rtasida

salomatlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholining sanitariya-epidemiologik osoyishta yashash va mehnat qilish muhitini yaratishda vrach yordamchilarining faoliyati;
- O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining hozirgi davrdagi o'rniga qo'yilgan vazifalari, maqsadlari, ularning tuzilishidagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- tashqi muhit omillarini (kimyoviy, fizikaviy, biologik, psixogen va ijtimoiy) inson salomatligiga salbiy ta'siri va keltirib chiqaradigan kasalliklarini oldini olish, mehnat qilish qobiliyatini oshirish va umrini uzaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rgatish;
- ichimlik suvi, ovqat mahsulotlari, atmosfera havosi hamda tuproqni ifloslantiruvchi omillarni tahlil qilish usullarini hozirgi zamon texnikasi va zamon talablari darajasida o'rgatish;
- aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini uyushtirishni o'rgatish;
- shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- zamonaviy sterilizatsiya va dezinfeksiya konsepsiyasi, usullari, vazifalari borasidagi bilim va ko'nikmalarini yangilash;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

Ishchi o'quv dasturi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida faoliyat olib borayotgan vrach yordamchilarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnoma-lariga muvofiq, mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llay oladigan, notiqlik san‘atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo‘lishi;
- SEOJSQ xodimining huquqiy me‘yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, aholini yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini amalga oshirish;
- Sanepidkum xodimi huquqiy mas‘uliyatlari-natijalarni sir saqlash va tarqatmaslik;
- Sanepidqo‘m vrach yordamchisi ishini tashkil etishdagi amaldagi me‘riy hujjatlarni o‘rganish va tibbiy hujjatlarni yuritishni bilish;
- sanitariya -gigiena, epidemiolgiya haqidagi bilimlarga ega bo‘lish;
- tashqi muhit omillarining, ekologik muvozanat buzilishining inson sog‘ligiga ta‘sirini bilishi va ish jaraenida urganishi;
- atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish va uni ta‘sirini yo‘q qilish tadbirlarini amalga oshirishi;
- somatik va yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini, kasallik uchog‘idagi vazifa va majburiyatlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish;
- shaxsiy va jamoa gigienasining ahamiyatini bilishi va aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib bora olishi;
- mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha gigienik normativlarni bilish;
- epidemiolog vrach yordamchilarining epid nazorat bo‘yicha olib boradigan ishlari va ularning ahamiyati mohiyatini bilishi;
- yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlar uchun me‘yoriy tibbiy xujjatlarni to‘ldirishni;
- dezinfeksiya haqida tushuncha, asosiy vazifalarini bilishi;
- o‘z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigienik, profilaktik, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko‘rsatmalarini amalga oshirish;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralarni amalga oshirish;
- mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va yangilangan to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish.

1.5. Dasturning dolzarbligi: O‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi milliy standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarni qo‘llash, , Uzbekiston Respublikasining 26.08.2015 yildagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi haqidagi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4790-sonli qarorlarining asosiy yo‘nalishlari,

shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilmfan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit haftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi №160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar soat 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: tinglovchilarga tegishli namunadagi sertifikat beriladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- hamkasblar, laborantlar va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi kengayadi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsientlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- Sanepidqo'm vrach yordamchilari ish faoliyati doirasida profilaktik va davolash-diaagnostik muolajalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshira olish;

- yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlash va o'rnatilgan tartibda tibbiy hujjatlarni yurita olish;
- ovqatlanish gigienasi sohasida oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga va xavfsizligiga sanitar-gigienik, mikrobiologik baho berish;
- mehnat gigienasi va mehnat sharoitiga qo'yiladigan yangi sanitariya gigienik talablarni bilish;
- mehnat sharoitiga qo'yiladigan yangi sanitariya gigienik normativlarni bilish;
- yuquvli kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish ko'nikmalarini yangilash;
- vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish qoidalarini;
- immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlarini bilishi va mijozda emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etishi;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- vrach yordamchisi ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'lish.

3.0. DASTURNING MAZMUNI.

3.1. "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi vrach yordamchisi" malaka oshirish kursi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg'ulotlari				Attestatsiya
		Kredit	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Seminar	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul:O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul.Sog'lom turmush asoslari,to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		

2.1	Modul : SEOJSQ sohasiga oid amaldagi farmon va me'yoriy hujjatlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining o'rni.	12	6	6		
2.2	Modul: Aholiga sog'lom turmush sharoitini yaratish asoslari.	12	6	6		
2.3	Modul:Ovqatlanish gigienasi. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigienik baho berish.	20	8	12		
2.4	Modul: Kommunal gigiena va jamoat salomatligi.	12	6	6		
2.5	Modul: Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablar.	12	4	8		
2.6	Modul: Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish.	12	4	8		
2.7	Modul:Davolash profilaktika muassasalari gigienasi. Kasalxonalar joylashishi va faoliyatiga qo'yilgan gigienik talab.	6	2	4		
2.8	Modul:Immunoprofilaktika. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish.	12	6	6		
2.9	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
4.0	Attestatsiya	4				4
	Jami	144	60	76	4	4

1. Kasbiy rivojlantirish moduli

1.1.Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to'g'risi"dagi hamda "Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarining

ahamiyati. Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul: Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalani tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4. Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish.

Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.0. Mutaxassislik fani modullari.

2.1. Modul. SEOJSQ sohasiga oid amaldagi farmon va me'yoriy hujjatlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining o'rni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4790-sonli qarori, chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6035 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida" 393-sonli Qonunining mohiyati.

Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining o'rni, oldiga qo'yilgan vazifalari, maqsadi, ularning tuzilishini taxlil qilish SEOJSQ vrach yordamchisining lavozimlik burchlari va vazifalari. Standartlar. Sanitariya qoidalari va me'yorlari. Tashqi muhit omillarining inson sog'ligiga ta'siri. Tashqi muhitni inson salomatligiga ta'sirini o'rganish usullari. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda o'rta tibbiyot xodimining tutgan o'rni va vazifalari. Yuqumli kasalliklar, infeksiyon jarayon, kasallik manbalari haqida tushuncha. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari. Kasalxona ichi infeksiyalarini oldini olish. Sterilizatsiya va dezinfeksiya konsepsiyasi, usullari, vazifalari. Sanitar epidemiologik tadbirlarning o'rni va ahamiyati.

2.2.Modul. Aholiga sog'lom turmush sharoitini yaratish asoslari.

Sanitariya gigiena tadbirlarini amalga oshirish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni tarqalishini oldini olish va tashqi muhitning ifloslanishiga qarshi kurash. Fan va texnika taraqqiyotining kommunal gigiena fani rivojiga ta'siri. Turar joylarni loyixalashtirish,atmosfera havosini va sanitariya xolatini yaxshilash,aholini toza ichimlik suvi bilan taminlash chora-tadbirlari.Suv havzalarini sanitariya jixatidan muhofaza qilish, turar joylarni ozoda tutish va tuproqlarni sanitariya jixatidan muxofaza qilish. Turar joy, ma'muriy binolar va davolash profilaktika muassasalarining gigienik xolatini yaxshilash chora-tadbirlari.

2.3. Modul. Ovqatlanish gigienasi. Oziq–ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigienik baho berish.

“Oziq –ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi” qonun mohiyati va mazmuni. Ovqatlanish gigienasi. Ovqat kaloriyasiga sanitariya-gigienik baho berish. Asosiy ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning fiziologik ahamiyati. Kamqonlik, buqoq, jinsiy zaiflikni kelib chiqishida ovqatlanishning roli. Ovqat mahsulotlarini konservatsiya qilish usullari. Go‘sh va go‘sh mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, don mahsulotlari, tuxumga sanitariya-gigienik baho berish. Ovqatdan mikrobl va mikrobsiz zaharlanishlar. Ovqat mahsulotlarini saqlash va transportirovka qilish. Umumiy ovqatlanish muassasalarini qurishni rejalashtirish, qurish va jihozlash, ekspluatatsiya qilishni sanitariya jihatidan nazoratni qilish. Oshxonada xodimlarining shaxsiy gigienasi va sanitariya bilimni nazorat qilish. Oshxonada xodimlarini dispanserizatsiyadan o‘tishini nazorat qilish. Ovqat mahsulotlarini tekshirish usullari. Sinama olish, organoleptik, fizikaviy va kimyoviy tekshirish usullari. Tayyor taomlarni tekshirish. Tayyor taomlarni tekshirish uchun sinama olish, organoleptik baholash, ovqat tarkibidagi yog‘, karbon suv, mineral tuz va kalloriyasini aniqlash. Taomnoma (menyu-raskladka) bo‘yicha kalloriyasini hisoblash, ovqat tarkibidagi minerallari va vitaminlari miqdoriga baho berish. Oshxonani sanitar gigienik jihatdan tekshiruv xaritasini to‘ldirish, ma'lumotnoma yozish.

2.4. Modul. Kommunal gigiena va jamoat salomatligi.Sanitariya gigiena

tadbirlarini amalga oshirish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni tarqalishini oldini olish va tashqi muhitning ifloslanishiga qarshi kurash. Fan va texnika taraqqiyotining kommunal gigiena fani rivojiga ta'siri. Turar joylarni loyixalashtirish,atmosfera havosini va sanitariya xolatini yaxshilash,aholini toza ichimlik suvi bilan taminlash chora-tadbirlari.Suv havzalarini sanitariya jixatidan muhofaza qilish, turar joylarni ozoda tutish va tuproqlarni sanitariya jixatidan muxofaza qilish. Turar joy, ma'muriy binolar va davolash profilaktika muassasalarining gigienik xolatini yaxshilash chora-tadbirlari. Turar joy binosini sanitariya jihatdan tekshirish kartasini to‘ldirish. Yorug‘lik koefitsentini aniqlash. Nur oqimi, yorug‘lik oqimi, yorug‘lik kuchi, yoritilganlik. Yoritiladigan ob'ektlarni tekshirish va jadvalini tuzish. Shovqin o‘lchagich va uni ishga tayyorlash, darajasini o‘lchash. Vibratsiyani o‘lchash. Havoning harorati, namligi, harakat tezligi, atmosfera bosimini aniqlash. Aspiratsion usul, idishlarga havo olish, filtrlarni qo‘llanilib havo olish. Dorixona,sartaroshxonalarga va boshqa muassasalarga qo‘yilgan gigienik talablar.

2.5. Modul. Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablar.

Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablar. Mehnatning sanitariya sharoitlarini o'rganish. Ishlab chiqarishda bo'ladigan zaharlanishlarning sabablarini, ventilyatsiya, apparatlarning germetikligi samarasini tekshirish. Zaharli moddalarni ruxsat etilgan miqdor (REM) chegara konsentratsiyasi. Zaharli moddalarni ta'sir qilish darajalari. Ishlab chiqarishda qo'rg'oshin va simobni organizmga ta'siri. Davlat andozasiga asosan havo tarkibidagi changni aniqlash. Filtr qog'oziga olinadigan namunalari. Silikozning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari rentgenologik ko'rinishlari. Ish joylaridagi chang tarkibini aniqlash. Namunalarni olish va tekshirishni o'tkazish. Fizik omillarni o'lchash. Tekshiruv bayonnomasini to'ldirish. Havoni fizik ko'rsatkichlarini aniqlash. Elektromagnit maydoni omillarini ishchi organizmga ta'siri, o'lchash usullari. Shovqinni nerv va asab sistemasiga ta'siri. Ishlab chiqarish shovqiniga qarshi kurash choralarini. Korxonada dastgohlari tebranishining odam organizmiga ta'sirini aniqlash va uning oldini olish. Vibrometr va vibrograf asboblarining tuzilishi va ishlatish. NVA-1 vibroo'lchagich bilan tebranishni o'lchash. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ventilatorlar tasnifi, binolar aeratsiyasi va uning rejimi. Mexanik ventilyatsiya. Havo so'radigan ventilyatsiya. Zavod va fabrikalar ustidan texnikaviy nazorat. Sanitariya normativlari va tavsiyalari, texnik o'lchash usullarini bilish.

2.6. Modul. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish.

DPM xonalarida sanitariya epidemiologiya nazorati, davolash profilaktika muassasalarida epidemiologiyaga qarshi chora-tadbirlar va dezinfeksiya qoidalariga rioya qilish yo'llari. DPMlarda sanitariya-epidemiologiya rejimlari va ularga amal qilish. Hospital, nozokomial infeksiya haqida tushuncha. ShII ni oldini olish. San Q va M0342-17 ning mazmun-mohiyati va unga rioya qilish. Shifoxona ichi infeksiyalari va davolash profilaktika muassasalarida olib boriladigan davlat sanitariya nazorati va nazoratdagi kamchiliklar haqida tushuncha. Shifoxona ichi infeksiyalari etiologiyasi, aniqlash yo'llari, doimiy epidemiologik kuzatuvni yuritish. "Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi" sanitariya qoida va me'yorlari (SanQvaM 0342-17). Davolash -profilaktika muassasalarida tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish sanitariya qoida va me'yorlari (SanQvaM 0317-15). Infeksiyon nazorat komissiyasi, tarkibi va ularning vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi bo'yicha amalga oshiriladigan sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari. Dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya va sterilizatsiya usullari.

2.7. Modul. Davolash profilaktika muassasalari gigienasi. Kasalxonalar joylashishi va faoliyatiga qoyilgan gigienik talab.

DPM lar turlari va faoliyati. Ularda sanitariya-epidemiologik dezinfeksiyon tartibga rioya qilish. Amaldagi me'yoriy xujjatlar. Bemorlarni ajratish tadbirlari. Epidemiologik tahlil va uning asosiy yo'nalishlari. Epidemiologik tahlilning turli guruh yuqumli kasalliklarining tarqalishi, oldini olish hamda ularga qarshi

kurashishdagi ahamiyati. Epidemiologik tashxis va tahlil. Epidemiologik tadqiqotlar. Tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni taqqoslash va guruhlash. Dezinfeksiya, uning turlari, usullari, zararsizlantirishning zamonaviy usullari. Kasallikning tarqalish va yuqish joylarida hamda manbalarida dezinfeksiyaning o'rni va ahamiyati. Dezinfeksiya o'tkazishda mehnat va texnika xavfsizligini ta'minlash. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. DPM lardan namunalarni olish, taxlillarni o'tkazish qoida va tartiblari. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora-tadbirlari.

2.8.Modul. Immunoprofilaktika. Vaksinalarni saqlash, transportirovka qilish.

Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarga qarshi emlash, yuqumli kasalliklarni oldini olish. Sog'liqni saqlash tizimidagi profilaktik emlashga doir derektiv va me'yoriy hujjatlar. O'zbekistonda yuqumli kasalliklarni oldini olish immunoprofilaktikasida SanQ va M 0342-17ga amal qilinishi. Epidemiyaga qarshi mujassamlashgan o'ziga xos profilaktika tadbirlarini ahamiyati. Epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish, aholi o'rtasida immunizatsiya ishlarini tashkil etish Immunitet to'g'risida tushuncha.. Yuqumli kasalliklar manbai, ularni tarqalish yo'llari va sabablari. Yuqumli kasalliklar (bo'g'ma, ko'kyo'tal, qoqshol, poliomielit, sil, qizamiq, yuqumli parotit va boshqalar) bilan kasallanishni kamaytirish. Rejali ravishda emlash.Katta yoshdagi kishilarni emlash va ulardagi muammolarni aniqlash. Emlanishi lozim bo'lgan aholi soni hisobotini olib borish.Vaksina va uning turlari haqida tushuncha. Vaksinalarni ishlab chiqarish,saqlash va transportirovka qilish tartibi. Emlashga taaluqli bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, hisobot tuzish va monitoringini yuritish.(f.063/u va 064/u)Emlash jadvaliga asosan yangi tug'ilgan chaqaloqlarni o'z vaqtida patronaj qilish va emlash jadvali sanasiga asosan amalga oshirish. Emlashdan keyingi asorat va nojo'ya ta'sirlarini aniqlash maqsadida patronaj qilish.Olib borilgan emlash ishlari yuzasidan har oyda hisobotni olib borish.

2.9. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha.Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlari.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari.Qon ketishni to'xtatish usullari.Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish.Elektro jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish.Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi - Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari/

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi, vaziyatli masalalar, va test savollari.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI.

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdagi "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063-sonli qarori.

5.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarini yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4790-sonli qarorlari

7.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

4.3.2. Asosiy adabiyotlar:

1. AripovM., BegalovV., BegimqulovU., MamarajabovM. Axborot texnologiyalari. Toshkent. Noshir, 2009 y.

2. Zakirova F. Informatika i informatsionnye texnologii T.Aloqachi, 2007g

3. Irgashev Sh.B. Valeologicheskie printsipy ratsionalnogo pitaniya. Tashkent

4. Irgashev Sh.B., "Meditsinskaya Valeologiya". Toshkent- 2012

5. "Infektsionnye bolezni s kursom VICH infektsii i epidemiologii"

6. “VICH – infeksiya” Pod redaksiyey AN RUz Daminova.T.A Tashkent – 2010.
7. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv dasturi qo‘llanma. -2014y
8. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashdatexnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qullanma. Tashkent.2009.y
9. O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigienik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19
10. Tibbiy anjom-asboblar va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va me‘yorlari.
11. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil
12. Yu.Allayorov Yu.Tojiboev“Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”
13. Azizov M.A. «Umumiy gigiena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.
14. Esonturdiyev S.S, Qarshiboeva M.E, «Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.
15. Do‘shanov D.A, Iskandarova Sh.T, Solixo‘jaev S.S. «Umumiy gigiena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.
16. A.B.Ganixo‘jaeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziy» nashriyoti, 2014 yil.
17. E.E.Eshboev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg‘ulotlar» Toshkent, «Ilm Ziy» nashriyoti, 2011 yil
18. Fayziev Y.M., Fayzieva X.A. “Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2007 yil
19. Bo‘ronov M.A, Mirjonov K.M. “Tibbiyot parazitologiyasi va epidemiologiya asoslari”. Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti, 2004 yil

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari:

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom” asosida o‘tkaziladi.